

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

TALABANING E'TIQODI, DUNYOQARASHI VA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISHI - TA'LIM SOHASINING RIVOJIDAGI O'RNI

Ilmiy rahbar: p.f.f.d(PhD) dotsent, v.v.b O.I.Yadgarova

SAMDCHTI 1-kurs talabasi: Ashurova Shoira

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasida o'qiyotgan talabalarning e'tiqodlari, dunyoqarashi va o'zlarini mustaqil nazorat qilishning ahamiyati va ularning muvaffaqiyatga erishishdagi o'rni bayon etilgan. Oliy ta'lim muassasida o'qiyotgan talabalarning darslarda qanday ishtirok etishi va universitetdagi tadbirlarda qay darajada faolligi, ularning e'tiqodi dunyoqarashi va o'zini nazorat qilishga uzviy bog'liq. Negaki, talabalarning faolligi va yuqori natijalarga erishishi ularning psixologik xarakterlariga va o'z-o'ziga qanchalik talabchanligiga bog'liq. Shuningdek, maqolada talabalar ishtirokida o'tkazilgan metodlar va ularning natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Talabanning e'tiqodi, ilmiy dunyoqarash, o'zini nazorat qilish strategiyasi, ichki motivatsiya, meditatsiya muloqot, tajriba.

Annotation:

This article describes importance of beliefs, worldviews, and self-control among students in academic degree their role in success. The degree to which students studying in a higher education institution participate in classes and are active in university activities, their faith, worldview and self-control are inextricably linked. After all, students' activity and achievement of high results depends on their psychological character and self-demandingness. The article also analyzes the methods and their results with the participation of students.

Keywords: Student's belief, scientific outlook, self-control strategy, intrinsic motivation, meditation communication, experience.

Аннотация:

В данной статье рассматривается важность убеждений, мировоззрений и самоконтроля среди студентов высших учебных заведений и их роль в успехе.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Степень участия студентов, обучающихся в вузе, в занятиях и активности в университетской деятельности, их вера, мировоззрение и самоконтроль неразрывно связаны между собой. Ведь активность студентов и достижение высоких результатов зависит от их психологического характера и требовательности к себе. Также в статье анализируются методы и их результаты с участием студентов.

Ключевые слова: Вера студента, научное мировоззрение, стратегия самоконтроля, внутренняя мотивация, медитативное общение, опыт.

So'ngi yillarda yurtimizda ta'lim sohasida yuz berayotgan bir davrda, oliy o'quv yurti talabalarini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, rivojlantirish muammo sifatida o'rganilishi davr talabi bo'lib qoldi. Oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida talabalarning yaxlit dunyoqarash va zamonaviy ilmiy dunyoqarashini, e'tiqodini shakllantirish vazifasi belgilangan. Zero, bir millatni kelajagini buyuk bo'lishi, o'sha yurti ta'lim sohasini rivojiga bevosita bog'liqdir. Talaba shaxsini dunyoqarashi va e'toqodi ta'lim sohasida bilim olishida, mustaqil o'rganishda va o'z o'qish faoliyatida yuqori natijalarga erishishda alohida o'ringa ega. Dunyoqarashi keng talaba ta'lim faoliyatida o'z xohish va irodasiga binoan mustaqil o'rganish ko'nikmasiga ega, o'z ustida muntazam ishlash va o'z-o'zini nazorat qila olish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shu o'rinda o'z-o'zini nazorat qilish tushunchasiga kengroq to'xtalib o'tsak. O'z-o'zini nazorat qilish (inglizcha: Self-control o'zini boshqarish) — his-tuyg'ularni, fikrlarni va xatti-harakatlarni nazorat qilish qobiliyati. Aynan talabaning o'quv faoliyatida o'z-o'zini nazorat qilish bu ulardagi irodaga asoslanadi. Talabalik — oltin davr! Bu davrda talabalalar vaqtlaridan to'g'ri foydalanib muvaffaqiyatga erishadigan davri hisoblandi.

O'z-o'zini nazorat qilish bu aqlan o'z-o'zini boshqarish, tahlil qilsih bilan bevosita va bilvosita bog'liq. Talabalarda maqsadlariga erishish yo'lidagi qobiliyatining muhim elementlaridan biri bu – o'z-o'zini nazorat qilishdir. O'z-o'zini nazorat qilish aqliy o'zini o'zi boshqarish tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. O'z-o'zini nazorat qilish talabaning maqsadlarga erishish qobiliyatining muhim elementidir.

Talabaning ilmiy dunyoqarashini va o'z-o'zini mustaqil nazorat qilishini shakllantirish muammosi ko'plab bilim sohalarining mutaxassislari tomonidan bir necha bor tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan. Talabaning dunyoqarashi ilmiy



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

salohiyatini qay darajada rivojlantirishda muhim omil hisoblandi. Negaki, dunyoqarashini keng, har tomonlama o'zini mustaqil nazorat qila oladigan talaba, o'zining shaxsiy faoliyatida ko'plab yuqori natijalarni qo'lga kiritadi.

Ushbu maqola talabalar uchun o'zini o'zi rivojlantirish, nazorat qila olish va dunyoqarashini kengaytirishi uchun quyidagi tavsiyalarni bera oladi.

✓ O'z-o'zlarining maqsadlarini belgilashlari kerak: O'zingizning maqsadlaringizni belgilab, ular uchun qanday yo'lda harakat qilishlari kerakligini tushunib chiqishlari kerak.

Maqsadni kichik maqsaddan boshlab katta maqsadga qarab yozishlari kerak chunki maqaadga erishganidan so'ng talabalarda o'ziga ishonch ko'payadi!

✓ O'zingizga ishonishingiz muhim: O'zingizga ishonishingiz, o'zingizga qarshi o'zingizni nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

✓ O'zingizni nazorat qilishingiz uchun strategiyani belgilang: O'zingizni nazorat qilish uchun bir necha strategiyalar belgilang va ularni amalga oshiring.

✓ O'zingiz bilan muloqotda bo'ling: O'zingiz bilan muloqotda bo'ling, o'z fikrlaringizni o'zingiz eshiting, o'zingizga o'zingiz ichki motivatsiya bera oladigan darajada bo'ling!

✓ O'zingizga qarshi o'zingizni nazorat qilishda sabrli bo'ling: O'zingizga qarshi o'zingizni nazorat qilishda sabrli va mustahkam bo'ling, muammolarni hal qilish uchun yengilmaslikning ahamiyatini tushunib chiqing.

✓ O'zingiz bilan ishlash uchun nafas oluvchi mashg'ulotlarga qatnashing: O'zingiz bilan ishlash uchun nafas oluvchi mashg'ulotlar bilan shug'ullaning. Masalan: meditatsiya, kitob o'qish va boshqa faoliyatlar.

✓ Yana bir kishi bilan muloqot qiling: Agar o'zingizni nazorat qilishda muammo yuzaga kelgan bo'lsa, yana bir kishi bilan muloqot qiling va maslahat so'rang chunki tajribali inson o'zida bo'lgan tajribalarni siz bilan bo'lishishi sizga katta natijalarni qo'lga kiritishingizda zo'r imkoniyat bo'lish mumkin!

Bu tavsiyalarni amalga oshirish orqali, talabalar e'tiqodi dunyoqarashi va o'zini o'zi nazorat qilishda yaxshi natijalar erishishingiz mumkin.

Talabalarning dunyoqarashlarini va ularning iroda mustahkanligini bilish maqsadida 2302-guruhda experiment o'tkazildi. Bu experiment davomida talabalar hayotlarida uchrashrashi mumkin bo'lgan vaziyatni tasavvur qilishlari kerak bo'ldi. Bu vaziyat quydagicha tasavvur qilindi: Siz talaba hisoblanasiz, siz moliyaviy jihatdan qiyin



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

vaziyatni boshdan kechiryapsiz, sizda ilmiy ishlaringiz uchun yetarlicha mablaq yo'q! Bu vaziyatda nima qilasiz?

Bu vaziyatda 60% talaba qo'shimcha ishlayman deb javob berdi qolgan qismi esa, uydagilarimdan pul olaman dedi. Endi 60% talabadan so'ralganda, siz qo'shincha ishni o'z yo'nalishingizga mos ravishda tanlab davom etib ishlamoqchimisiz yoki boshqa yo'nalishda ham ishlayverasizmi?

Bu paytda esa 40% talaba faqat o'z yo'nalishimda ishlayman, boshqa yo'nalishda ishlamayman deb javob berishdi. Bundan xulosa chiqarildiki, universitetida o'qiyotgan talabalarning ko'pchilik qismi o'z dunyoqarshi va e'tiqodidan kelib chiqib ish yuritishar ekan. Bu jarayonda talabalarda hayotlarida va ilmiy sohada uchratishlari mumkin ayrim muammoli vaziatlar taqdim etildi. Bu jarayonda 20 ta talabalar deyarli bir biriga o'xshamaydigan javoblar taqdim etdi. Bundan xulosa shuki, talabalar ko'pchilik vaqtlarda hayotiy va ilmiy muammolarni o'zlarining dunyoqarashlari, e'tiqodlari va irodalaridan kelib chiqqan holda yechishga urinishar ekan. Shu sababli, talaba o'qish faoliyatida ham dunyoqarshash va o'zini o'zi mustaqil nazorat qilishi muhim sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. «Ma'rifat gulshani» gazetasi, 6 2007 yil.
5. To'raqulov X.A. Kamolot sari. Jizzax, 2007, 181-182 betlar.
6. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2006,
7. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006, 284 bet.
8. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.

